

XORAZM TUPROQ IQLIM SHAROITIDA QADIMIY BUG'DOY NAV NAMUNALARINING TEKNOLOGIK SIFAT KO'RSATKICHLARI

Isayeva Zaxro Baxrom qizi - Urganch davlat universiteti 1 - bosqich
magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazm tuproq iqlim sharoitida qadimiylar bug'doy nav namunalarining texnologik sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bug'doy, don, oqsil, kleykovina, IDK ko'rsatkichi, non, Qizil bug'doy, Oq bug'doy, o'g'it, genotip, qattiqlik, yaltiroqlik.

Bug'doy doni sifatini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri uning tarkibidagi umumiy oqsil va ho'l kleykovina miqdori hamda IDK ko'rsatkichi bo'lib, u donning oziq qimmatliligi va texnologik xossalarni belgilaydi [2]. Don tarkibidagi oqsil faqat donning sifatini emas, balki uning qayta ishslash mahsulotlari va texnologik xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Juda ko'p sifat ko'rsatkichlari don tarkibidagi kleykovina miqdori, uning non yopish xususiyatlari don tarkibidagi oqsil miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Bug'doy donidagi oqsil miqdori va sifati nav xususiyatlariga, tuproq iqlim sharoitiga, o'g'itlashga, o'simlikni kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishiga hamda boshqa omillarga bog'liq holda o'zgaradi.

A.V. Andrushenko va M.D. Fedorovalarning bug'doy don sifatini aniqlash bo'yicha ko'p yillik tadqiqotlari natijasida mahalliy populyatsiyalardan ajratilgan nav namunalar bug'doy standartidan farq qilishi ko'rsatilgan.

Yuqori texnologik xususiyatga ega bo'lgan navlar oqsil miqdori yuqoriligi bilan farqlanadi. Davlat standartlari bo'yicha bug'doy doni tarkibidagi umumiy oqsil miqdori 14 - 17 foizni va ho'l kleykovina 28 foizdan yuqori bo'lgan navlar kuchli bug'doylar toifasiga kiritilib, bunday navlardan olingan un non ishlab chiqarishda "yaxshilovchi" sifatida ishlatiladi. Oqsil miqdori 12 - 14 foizli va kleykovinasi 28 foizga teng bo'lgan navlar o'rta toifaga kiritilib, non qilishda asosiy navlar hisoblanadi. Don tarkibidagi oqsil miqdori 10 - 12 foiz bo'lib, kleykovina miqdori 22 foizdan yuqori bo'lgan bug'doy doni uchinchi toifaga, ya'ni kuchsiz bug'doy hisoblanib, non ishlab chiqarishda "yaxshilovchi" toifadagi un qo'shib ishlatiladi [7].

Bug'doy seleksiyasidagi asosiy maqsadlardan biri don sifatini ko'tarish bo'lib, yangi yaratilayotgan navlarni Davlat reestriga kiritish va tumanlashtirishga ruxsat berishda bu ko'rsatkich asosiy hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'rganilayotgan nav namunalaridagi sifat ko'rsatkichlarini o'rganish ham ilmiy ishimizning asosiy

maqsadlaridan bittasidir.

Shuni ham aytish kerakki, hududning tuproq - iqlim sharoitlariga moslashgan, don sifati yuqori navlarni yaratishda shu regionga moslashgan eski mahalliy nav populyatsiyalarni dastlabki material sifatida foydalanish yaxshi natija berishi mumkin.

Xadjaqulov [8] ta'kidlashicha, bug'doy donlarining sifatini baholashda quyidagilar: oqsil miqdori, sedimentatsiya ko'rsatkichi, erkin tushish soni, nonning hajmi va shaklini saqlash xususiyati hamda kleykovina sifati ko'rsatkichi non mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda dondag'i kleykovina miqdori va sifati bug'doy donining texnologik va ozuqaviy boylligini baholovchi birinchi omil bo'lib hisoblanadi. Ayni paytda bug'doy donlarining texnologik sifat ko'rsatkichlariga keng ko'lamda tavsifnomalar berishda bug'doy yetishtiriladigan muhit ham oqsil miqdoriga, kleykovina miqdori va sifatiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bug'doyning erta va kech ekilish muddatiga qarab, unib chiqishi va rivojlanishi ham har xil bo'ladi, bu esa donning texnologik sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bug'doyning yetilish davrida harorat yuqori bo'lib, yog'ingarchilik kam bo'lsa, bu holda dondag'i oqsil va kleykovina miqdori yuqori bo'ladi. Pishish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lsa donning sifati pasayishi va kleykovina miqdori kamayib ketishi kuzatiladi [7,9].

Bizga adabiyotlardan shu narsa ma'lumki, bug'doy donining tarkibida oqsil va kleykovina miqdori ko'p bo'lsa undan shuncha yuqori sifatli non tayyorlash mumkin [3].

Oqsil miqdorining ko'p yoki kam bo'lishiga navning biologik xususiyati, yetishtirish uslubi va iqlim sharoitlari ta'sir etadi [5].

Ko'pgina mualliflar tadqiqotlaridan bizga ma'lumki, donda oqsilning miqdori ko'p jihatdan tashqi muhit omillariga, tuproq tipiga, uning suv rejimiga, oldin ekilgan ekinlarga va azotli o'g'itlar miqdoriga bog'liq bo'ladi [4,5,6].

Bundan tashqari don tarkibidagi oqsilning miqdori G'arbdan Sharqqa tomon ekilib borishi bilan oshib boradi [5].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda Respublikamizning shimoliy xududlarida yetishtirilayotgan navlarning doni tarkibidagi sifat ko'rsatkichlarini baholash uchun biz Xorazm viloyatida ekilayotgan ayrim qadimiy bug'doy navlarni doni tarkibidagi kleykovina miqdori va IDK ko'rsatkichilarini ekib o'rjanib ko'rdik.

Xorazm viloyatida yetishtirilgan navlarning doni tarkibini biokimyoiy tahlil qilganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, kuzatish ishlari olib borayotgan

navlarimizdan Oq bug‘doy navida kleykovina miqdori 30,0 foizga teng bo‘lib, IDK ko‘rsatkichi 93,0. II qoniqarli kuchsiz, Qizil bug‘doy navida 35,0 foiz bo‘lib, IDK ko‘rsatkichi 33,6. II qoniqarli qattiq ko‘rsatkichga ega bo‘ldi (1 - jadval).

1 - jadval

O‘rganilayotgan bug‘doy navlarining sifat ko‘rsatkichlari

№	Navlar nomi	Kleykovina, %	IDK
1	Oq bug‘doy	30,0	93,0. II qoniqarli kuchsiz
2	Qizil bug‘doy	35,0	33,6. II qoniqarli qattiq

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki don tarkibidagi oqsilning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari nafaqat navning o‘sirilgan sharoitga va unga berilgan o‘g‘it miqdoriga, balki nav genotipiga ham bog‘liq bo‘lib, yangi navlar yaratishda bu belgiga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Don sifati juda ko‘p ko‘rsatkichlar mahsulidir. Donning sifati, yaltiroqliligi yoki qattiqligi bug‘doy naviga xos belgilardan biridir. Shunga qaramay bu belgilar bug‘doy o‘simgilining o‘sish sharoitiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Donning yaltiroqlik sifati namlik ortiqcha bo‘lgan, azot yetishmagan sharoitda pasayadi. Sedimentatsiya ko‘rsatkichi o‘simlikning mineral o‘g‘itlanish darajasiga bog‘liq bo‘lsada, ammo har bir nav uchun alohida ko‘rsatkichini aniqlaydi. Ma’lumki o‘simlik o‘z vaqtida va yetarli darajada oziqlantirilsa nafaqat hosildorlik oshadi, balki donning sifatiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Belttyukov L.P [1] xulosalariga ko‘ra, tuproqda namlik ko‘p bo‘lib, azot taxchil, tuproq eritmasining quyuqligi (kontsentratsiyasi) qanchalik past bo‘lsa, bug‘doy donining shishasimonlik darajasi ham shu qadar past bo‘ladi.

Don quruq muddani mum pishish davrining oxirigacha hosil qiladi va don to‘liq pishgandan so‘ng dondag‘i quruq modda o‘zgarmas bo‘ladi, 1000 dona don vazni esa oqsil miqdori bilan o‘zaro bog‘liq.

Tuproq eritmalari nechog‘lik quyuq (to‘yingan) bo‘lsa, donning yaltiroqlik sifati shu qadar ortadi.

Xorazm viloyati sharoitida yetishtirilayotgan ayrim qadimiy bug‘doy navlarini shishasimonligini tekshirib ko‘rganimizda, navlar ichida faqatgina Oq bug‘doy navi 97 foizga, Qizil bug‘doy navi 82 foizga ega bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Белтъюков Л.П. “Сорт, Технология, урожай. Ростов-на-Дону”. ЗАО “Книга”. 2002. - 166 с.
2. Гатаулина Г.Г., Объедков М.Г. “Практикум по растениеводству”. - М.: Колос, 2000. - 216 с.
3. Носатовский А.Н. “Пшеница”. Биология - М. 1965. - 586 с.
4. Oripov R., Halilov N. “O'simlikshunoslik”. - T., 2007. 57 - 71 b.
5. Павлов А.Н. “Накопление белка в зерне пшеницы и кукурузы”. М.: Колос 1967. - 339 с.
6. Посипанов Т.С. “Растениеводство”. - М., 2006.
7. Василенко И. И., Комаров В. И. “Оценка качества зерна”. - М.: Агропромиздат, 1987. - 208 с.
8. Хаджакулов Т., Гайбуллаев С. “Оценка комбинационной способности компонентов урожая зерна у яровой пшеницы”. Ташкент. 1991. 16-20 с.
9. Zokirov T.S., Rag'matov I.M. “Donchilik asoslari”. Qarshi: Nasaf, 1999. - 122 b.